



B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA O‘ZBEKISTON AHOLISI DEHQONCHILIGI

Amirbek Ashirbayevich TAG‘BAYEV

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi kafedrası*

Annotatsiya. Mazkur tezisda B.X. Karmisheva asarlarida O‘zbekiston aholisi dehqonchiligining yoritilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda Janubiy O‘zbekistonning tabiiy-geografik sharoiti, sug‘orma va lalmi dehqonchilik, sug‘orish tizimlari, ekin turlari, almashlab ekish an‘analari hamda aholining o‘troqlashuvi bilan bog‘liq xo‘jalik jarayonlari aks etgan. Shuningdek, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, turli etnik guruhlarining iqtisodiy-madaniy yaqinlashuvi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: B.X. Karmisheva, dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik, lalmi dehqonchilik, sug‘orish, almashlab ekish, o‘troq aholi, Janubiy O‘zbekiston, xo‘jalik simbiozi.

O‘zbekiston hududining tabiiy-geografik sharoiti, xususan, unumdor tuproqlar, daryo va soylarning mavjudligi dehqonchilikning qadimdan rivojlanishiga zamin yaratgan. B.X. Karmisheva tadqiqotlarida aholining xo‘jalik faoliyati geografik muhit, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston janubi qadimiy dehqonchilik hududlaridan biri sifatida tavsiflanib, Boysun va Qurama tog‘lari etaklarida koriz, buloq va hovuz suvlaridan foydalanishga asoslangan dehqonchilik shakllari mavjud bo‘lgani qayd etiladi [5, 32–38-6.]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vodiysining sug‘orish tizimi Surxondaryo, To‘palangdaryo, Ipoqdaryo, Sangardakdaryo, Dashnoboddaryo va Sherobod daryolari bilan bog‘liq bo‘lgan. Sug‘orish tarmoqlarini boshqarishda miroblar muhim vazifani bajargan. Ayrim joylarda sel suvlariga asoslangan shartli sug‘orma dehqonchilik ham mavjud bo‘lgan [5, 37–38-6.].

Janubiy hududlarda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bir-birini to‘ldirib, o‘ziga xos xo‘jalik simbiozini shakllantirgan. Suv tanqis hududlarda yer va suvdan jamoaviy foydalanish an‘analari saqlanib, paykal tizimi orqali suvni taqsimlash, korizlarni qazish va ta‘mirlash kabi ishlar jamoaviy tarzda bajarilgan. Bu holat dehqonchilikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xarakterga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi [1, 91, 131, 134-6.]

B.X. Karmisheva ma‘lumotlariga ko‘ra, Janubiy O‘zbekistonda yashagan urug‘-qabila birlashmalari turmush va xo‘jalik tarziga qarab o‘troq va yarim o‘troq guruhlariga ajralgan. Yarim o‘troq aholi asosan yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullangan bo‘lsa, dasht, tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi aholi lalmikor hamda qisman sug‘orma dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Keyinchalik ko‘chmanchi o‘zbek qabilalarining asta-sekin dehqonchilikka o‘tishi va o‘troqlashuvi xo‘jalik hayotida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan [5, 264-6.].



Sug'orma dehqonchilik hududlarida qadimdan bug'doy, arpa, sholi, kunjut va poliz ekinlari yetishtirilgan. Dehqonlar almashlab ekish usulidan foydalanganlar: yer uch qismga bo'linib, bir qismiga sholi va bug'doy, ikkinchisiga kunjut ekilgan, uchinchi qismi esa dam olish uchun qoldirilgan. Keyinchalik bunday yerlar "zamini shudgor" deb atalgan [5, 323-6.].

Lalmi dehqonchilik rivojlangan hududlarda ham almashlab ekish muhim ahamiyat kasb etgan. Bo'sh qoldirilgan yer bahorda va ekishdan oldin haydalgan hamda "manzara" yoki "marza" deb atalgan. Hisor tizmasi yonbag'irlarida soy suvlarini ariqchalar orqali tekisliklarga yo'naltirib, loyqa oqovalar to'planadigan yerlarda dehqonchilik qilish usuli shakllangan. Xalq orasida bu usul "selovakorlik" deb nomlangan [9, 52-55-6.].

Vohada dehqonchilikning rivoji, avvalo, sug'orish imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Tekislik va suv bilan ta'minlangan hududlarda sug'orma dehqonchilik, tog' va tog'oldi hududlarida esa lalmikor dehqonchilik rivojlangan. Sun'iy sug'oriladigan yerlarda sholi, paxta, kunjut, jo'xori, zig'ir, bug'doy va arpa yetishtirilgan. G'alla, poliz ekinlari va bog'dorchilik esa sug'oriladigan yerlar bilan bir qatorda lalmikor hududlarda ham taraqqiy etgan [5, 323-6.].

Hisor vodiysining tog' va tog'oldi hududlarida yong'oq, olma, bodom, anor, shaftoli va o'rik kabi mevali daraxtlar yetishtirilgan, tog'li hududlarda uzumchilik rivojlangan. Polizchilikda qovun, tarvuz, sabzi, qovoq va piyoz kabi ekinlar yetishtirilgan. Sug'oriladigan yerlarda beda, makkajo'xori, sholi va paxta ham muhim o'rin egallagan [6, 219-6.].

Dehqonchilikning rivojlanishi etnik jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Ayrim etnik guruhlarining o'troqlashuvi natijasida ular sug'orma dehqonchilik uchun qulay hududlarga joylashgan va vaqt o'tishi bilan dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan. Shu bilan birga, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar natijasida xo'jalik yuritish tajribalari o'zaro ta'sirlashgan [4, 98-6.; 5, 96-6.].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'chmanchi o'zbek qabilalari asta-sekin lalmi dehqonchilikni o'zlashtirib, daryolar atrofida sug'orma dehqonchilikka o'ta boshlagan. Biroq chorvachilik ularning iqtisodiyotida yetakchi o'rinni saqlab qolgan. Vaqt o'tishi bilan o'troq hayot tarzining kengayishi va dehqonchilikka e'tiborning ortishi natijasida an'anaviy xo'jalik tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan [3, 289-290-6.].

Xulosa qilib aytganda, B.X. Karmisheva asarlarida O'zbekiston aholisi dehqonchiligi tabiiy-geografik sharoit, suv resurslari, aholi joylashuvi va etnik jarayonlar bilan bog'liq holda yoritilgan. Olimaning tadqiqotlari sug'orma va lalmi dehqonchilik shakllari, sug'orish usullari, ekin turlari, almashlab ekish an'analari hamda aholining o'troqlashuvi jarayonlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Janubiy O'zbekiston misolida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning o'zaro uyg'unligi hamda turli etnik guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar xo'jalik taraqqiyotining muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёндар. – Самарқанд. 2008. – Б. 91, 131, 134.
2. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1994.
3. Кармышева Б.Х. Изготовление войлока у узбеков / Приаралье в древности и средневековье. – М.: Восточная литература, 1998. – С. 289–290.
4. Кармышева Б.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана // Советская этнография. – 1964. – №6. – С. 98.
5. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. АН СССР. Ин-т этнографии. – М.: Наука, 1976. – С. 32–38, 96, 264, 323.
6. Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». – М., 1984. – Вып. 14. – С. 219.
7. Қабулов Э.А. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Т.: Академнашр, 2012. – 390 б.
8. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеки // Археология Средней Азии. Труды САГУ. – Т., 1953. – Вып. 61. – С. 3–63.
9. Рассудова Р.Я. Занятия населения / Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – С. 52–55.
10. Турсунов Н. Этнические особенности населения южносурханского оазиса (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т.: Термиз ГУ, 2007. – С. 16–19.
11. Узбеки. – М.: Наука, 2011. – С. 79.
12. Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана. – Т., 1965. – С. 125.